

Birodarlik merosimiz targ'ibi yo'lida

Muso MARJONLI,
Bosh muharrir

O'zbekiston va Ozarbayjon – o'zaro do'st va birodar ikki mamlakat hisoblanib, ularni mustahkam etnomadaniy hamda ma'naviy rishtalar bog'lab turadi. Xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalar uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda esa ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqich – strategik sheriklik bosqichiga ko'tarildi. Mamlakatlarimiz ikki tomonlama hamkorlik bilan bir qatorda, xalqaro tashkilotlar, avvalo Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham faol hamkorlik qilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi iqtisodiy-gumanitar aloqalar sezilarli darajada kengaydi. Aynan shu omillar Ozarbayjonning IRS xalqaro nashrlar guruhini o'zbek o'quvchisiga murojaat qilishga undadi. IRS (Meros) jurnali nashrning 22-tildagi talqini bo'lib, uning asosiy vazifasi Ozarbayjon tarixi, madaniyati va bugungi taraqqiyoti haqida xolis ilmiy ma'lumotlarni keng xalqaro jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarini qamrab oluvchi xalqaro tillar bilan bir qatorda, biz alohida davlatlar tillarida jurnal chiqarishga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bu esa Ozarbayjon haqidagi ma'lumotlarni o'sha mamlakatlar o'quvchilariga yanada samarali yetkazish imkonini yaratadi. Bunday davlatlar qatoriga qardosh turkiy mamlakatlar – Turkiya, Qozog'iston, endilikda O'zbekiston ham kiradi.

Albatta, ilk son asosan tanishtiruv xarakteriga ega. Unda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlari – ham tarixiy, ham zamonaviy ko'rinishlari yoritilgan. Shuningdek, mazkur sondan bosib olingan hududlardan ozod etilgan Qorabog'da olib borilayotgan tiklash ishlari, hamda Bokudagi Haydar Aliyev markazi haqida maqolalar ham joy olgan. Ganjadagi Nizomiy maqbarasiga tashrif taassurotlari haqidagi material esa alohida qiziqish uyg'otadi.

Nashrimizning ijodiy jamoasi qardosh O'zbekiston o'quvchilarini samimiy qutlaydi va ushbu uchrashuvimiz sizlar uchun qiziqarli bo'lishi hamda ozarbayjon xalqi haqidagi bilimlaringizni kengaytirishga xizmat qilishiga umid qiladi.